



ARTICLE INFO

Received: 27th December 2022

Accepted: 07th January 2023

Online: 08th January 2023

KEY WORDS

Oq kema, tarjima, millat, samimiyat, xalqchillik, bola ezgulik.

ASRNING BUYUK ADIBI

¹Nasiba Xo'janova,

²Xaniza Panjiyeva

Termiz davlat universiteti talabalar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7514658>

ABSTRACT

Ushbu maqolada yozuvchining qissalari tahlil qilingan. Qolaversa, adib asarlarining tarbiyaviy ahamiyati va bugungi kun uchun ham dolzarbligi aytilgan.

Chingiz Aytmatov... Bu nom har qanday sharhu izohlarsiz butun dunyo kitobxonlariga tanish va qadrlidir. U qirg'iz xalqining ulug'yozuvchisi sanaladi. Inson badiiy tafakkurining noyob durdonalarini yaratgan L.Tolstoy, F. Dostoevskiy, M. Bulgakovlar qatorida Chingiz Aytmatovning nomini ham sanamay o'tib bo'lmaydi. Ijodkorning umri uning bu foniy dunyoda yashagan yillari bilan o'lchanmaydi. Bu gap shubhasiz, boshqa kasb egaliga ham tegishli. Ammo qalam ahliga ko'proq daxldor. Chunki yozuvchining mahorat bilan bitilgan asarlari mustahkam qasrlar, mahobatli imoratlardan ham ko'proq yashaydi. Tosh yemirilishi, g'isht ko'chishi, poydevor nurashi mumkin, ammo mukammal san'at asari asrlardan asrlarga o'tadiki, ma'no- mohiyatini aslo yo'qotmaydi. Aksincha, yangi avlod undan bahramand bo'lib, o'zi uchun yangi ma'no, yangi fikr topa oladi. Chingiz Aytmatov ijodi bilan o'ziga barhayot haykal qo'ydi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz... O'zining durdona asarlari bilan adabiyot xazinasini boyitgan Chingiz Aytmatovning ijodi bilan tanish bo'lmagan faol kitobxonni topish qiyin. Adib asarlari dunyoning barcha qit'alarida sevib o'qiladi. Chunki u har bir asarida insonning ichki olami va jamiyat bilan bog'liq abadiy muammolardan bahs yuritadi. Yozuvchi so'zining qudrati hayot haqiqati va yuksak xalqchilligidir. Har bir millat vakili ularni mutolaa qilgan ekan, o'zi, millati va vataniga daxldor narsalarni topa oladi. Chingiz Aytmatov qissalari, romanlari uslub jihatidan ham, janr jihatidan ham tubdan farq qiladi, bir- birini takrorlamaydi. Lekin birgina jihatdan o'xshash – ular orasidan birorta nosamimiy asarni topa olmaysiz. Samimiyat – yozuvchining ilk qissalaridan to so'nggi yillarda yaratgan falsafiy romanlarigacha yo'g'rilib ketgan. Davr ruhi bu asarlarga daxl qila olmaydi- hamma vaqt kishiga birday ta'sir etadi, kitobxon bu kitoblarni har safar o'qiganda yangi-yangi jihatlatni kash qilaveradi.

XX asrning buyuk yozuvchisi Chingiz Aytmatov bilan taniqli qozoq shoiri, yirik jamoat arbobi Muxtor Shoxonovning samimiy suhbatlari natijasi o'laroq dunyoga kelgan "Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori" insoniyatga cheksiz ishonch va mehr- muhabbat ulashadi. Kitobda o'tgan ajdodlar ruhiga hurmat, ular qoldirib ketgan ma'naviy meros va kelajak avlod taqdiri



haqidagi suhbatlar o`rin olgan. Asarni o`qish jarayonida suhbatdoshlar qalbidagi og`riqni ham his qilasiz. Inson umrining mohiyati ma`naviy jasorat, inson esa hayotning gultojidir. Foni dunyoda insonga borib taqaladigan chigal muammolar behisob. Bunday muammolarga har bir kishi duch keladi va har kim o`zicha javob izlaydi, o`zicha javob topadi. Mualliflar nozik masalalar to`g`risida nozik fikr yuritadilar. Kitobxonni ham fikrlashga undaydilar. O`quvchi Chingiz og`a bilan Muxtor og`aga hamsuhbat bo`lib qoladi. "Aytmatov ijodi bizga ko`p jihatdan saboq bergulik maktabdir", - deb yozgan edi O`zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov. Chingiz og`a o`zining benihoya jasur iste`dodi bilan har qanday qiyin sharoitda ham haqiqatni qiyomiga yetkizib o`rinlatib ayta bilishni isbotladi, - deya ta`kidlaydi.

Adibning "Alvido Gulsari" asarini eslang. Asar qahramoni Tanaboyning ham, uning sodiq yo`ldoshi Gulsari laqabli otining ham navqiron chog`lari jamiyat xizmatiga sarf bo`ldi. Biroq ular qartaygach nazardan, e`tibordan qola boshlaydilar. Yozuvchi mana shu fikrni murakkab sharoitda katta mahorat bilan badiiy asarga aylantirdi. Bu gap bugungi kunda ham o`z muhimligini, hayotiy qimmatini yo`qotgan emas. Qissaning bosh qahramoni Tanaboy jon taslim qilayotgan oti Gulsarining boshida turib butun o`tgan umrini yodga oladi. Inson og`ir musibat damlarida, cho`qqidan qulaganda yolg`izlikda xotiralarga beriladi, o`tgan umrini sarhisob qiladi. Bunda bir tomondan odamlardagi mehr oqibat yo`qolib borayotgani, ikkinchi tomondan inson va tabiat o`rtasidagi muvozanatning buzilib borayotganligi hikoya qilinadi. Albatta, har qanday buyuk adibning ham o`z uslubi, o`z ohangi bo`ladi. Tolstoyni Dostoevskiydan farqlashda dohiyona belgilarni ilg`ash mumkin bo`lganidek, Aytmatov ijodini kuzatganda ham faqat unga xos bo`lgan fazilatlarini darhol topa olamiz. Bular - chuqur insoniy falsafa hamda g`oyat go`zal poetik ruhdur. Adib asarida biz mana shunday insonni ichki tuyg`ularini junbushga keltiradigan holatlarni uchratishimiz mumkin.

Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasi ham boshqa asarlari kabi kitobxonlar tomonidan muhabbat bilan kutib olindi. Adib asarida o`z fikrlarini shunday tasvirlaydi: "Men bolalik taassurotlari bilan yashamaydigan hech bir odamni, ayniqsa ijodkorni bilmayman. Axir "Oq kema" qissasining qahramoni qilib, bola tanlangani ham bejiz emasku. Men bu bola bilan iymon diyonat tug`ilishi, bularning bari bolalikdan boshlanadi degan fikrni uqtirmoqchi bo`lganman" deydi. Asarda bobosidan boshqa yaqini bo`lmagan BOLAning qalb kechinmalari juda ta`sirli bayon qilingan. Bolalarning o`z dunyosi bo`ladi. Bolalarning qalbida xudo yashaydi deyishadi. Kattalar bu dunyoni ko`rib turganlaridan kelib chiqib fikrlasa, bolalar esa orzular dunyosida yashashadi. Asar qahramoni bola ham xuddi shunday o`z dunyosida yashaydi. Hamma jonsiz - u jonli narsalarni o`ziga dardkash deb biladi. Bobosining samimiy ertaklariga ishonadi. Bobosi aytib

bergan Shohdor ona bug`i haqidagi ertakni o`z hayoti bilan bog`liq ravishda tasavvur qiladi. Asardagi Mo`min bobo obrazini biz "ikki o`t orasida qolgan qahramon" deyishimiz mumkin. U nabirasini yaxshi ko`radi. Shu bilan birga qizining ham baxtsiz bo`lib qolishidan qo`rqadi. Shuning uchun ham bug`uni o`ldirishga majbur bo`ladi. Asarning eng ta`sirchan nuqtasi ham mana shu - bug`uning nobud bo`lgani va BOLAning qalbi chilparchin bo`lgani! Qissaning muhim jihatlaridan biri unda realizm bilan romantikaning, real ifodalar bilan ramziy ifodalarning, hayot bilan ertakning uzviy birikib ketganligidadir. Muallifning ko`pgina asarlariga xos bo`lgan ezgulik va yovuzlik, go`zallik va badbinlik o`rtasida murosasiz kurash ketadi. Afsuski, bus afar ham ezgulik ko`zida yosh bilan qolaveradi. Chingiz Aytmatov o`zbek



xalqiga juda ko`ngli yaqin yozuvchi. Yozuvchining deyarli barcha asarlari o`zbek tiliga tarjima qilingan. Tarjima – ijod olamining bir turi. U masofalarni yaqinlashtirib, millatni millat bilan, xalqni xalq bilan hamnafas qiladi.

Shu o`rinda aytish kerakki, o`zbek kitobxonlari qalbida Chingiz Aytmatov ijodiga muhabbat o`yg`otganlar, shubhasiz, bu tarjimonlardir. Benazir tarjimonlar Asil Rashidov, Ibrohim Gofurov, Suyun Qorayevlar zahmatlarini e`zozlaymiz.Chunki badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga o`girayotgan mutarjim asar mazmuninigina emas, ohangini, ruhiyatini ham tarjima qiladi. Bugungi kunga kelib dunyoning turli burchaklarida yashayotgan barcha millat vakillari adib asarlarini o`z tillarida o`qiydilar.Yozuvchi asarlarining bu qadar sevib o`qilishining boisi adib qalamga olgan voqealarning umumbashariyatga tegishli ekanligidadir. Xulosa qilib aytganda, Chingiz Aytmatov nafaqat qirg`iz adabiyoti, balki jahon adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo`shgan buyuk yozuvchidir.

References:

1. Ch. Aytmatov. Asrga tatigulik kun. Qiyomat. Toshkent.G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1989.
2. I. G'aniyev, R. Ibragimov. Chingiz Aytmatov va XX Asr.Toshkent. " Akademnashr" 2013.
3. Ch. Aytmatov .Qulayotgan tog'lar.Toshkent- " O'zbekiston " - 2018.